

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

1/S-son (5-jild)

**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ S/1 (5) - 2025*

## **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

## **ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

*22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## **OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### **Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Мадреймов Фархат Махсетбаевич</i> СОЦИАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА В КАРАКАЛПАКСТАНЕ В 1920-1924 ГОДАХ .....	12-18
<i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i> АНТРОПОЛОГИЯ ИМПЕРСКОЙ ВЛАСТИ: ХАКЕНТСКИЕ ЗЕМЛИ И АДВОКАТ С. ЛАПИН .....	19-23
<i>Чориев Шохрух Холтура угли</i> ИСТОРИОГРАФИЯ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ- ГУБЕРНАТОРСТВА В 40-90-Е ГОДЫ XX ВЕКА .....	24-35
<i>Najmiddinov Boburmirzo Zuhridin o'g'li</i> SOVET HOKIMIYATINING 1917-1943-YILLARIDA O'ZBEKISTON SSR DA AMALGA OSHIRGAN DINIY SIYOSATI .....	36-43
<i>Esonova Nilufar</i> SANOAT SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK MUNOSABATLAR TARIXINING O'RGANILISHI: TAHLIL VA NATIJALAR (1991-2018-YILLAR) .....	44-47
<i>Qarshiyev Ahmad, Jumayev Abdimo'min, Bebitov Maqsud</i> DENOV BEKLIQIDA MAVJUD JOY NOMLARIGA OID MULOHAZALAR .....	48-55
<i>Qurbonov Abbas</i> MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA QASHQADARYODA YENGIL SANOAT SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR VA ULARNING NATIJALARI .....	56-59
<i>Abduraimova Sabohat Ergash qizi</i> BUXORO AMRLIGI DAVRIDA CHIROQCHI BEKLIQI AHOLISINING TURMUSH TARZI .....	60-65

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Karjavova Xurshida Abdumalikovna</i> MAHALLA INSTITUTINING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....	66-73
<i>Pardayev Erkin Egamberdi o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA SIFATNI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI .....	74-82
<i>Palvanbayev Umidbek O'ktam o'g'li</i> O'ZBEKISTON POCHTA BOZORIDA XUSUSIY POCHTA KORXONALARINING TUTGAN O'RNI (BTS, DMS, EMU POCHTALARI MISOLIDA) .....	83-86
<i>Чинорова Шаходат Мансур кизи, Нормуродов Хусан Эшмахматович</i> ЗНАЧЕНИЕ ТАРГЕТИРОВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РАЗВИТИИ РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ .....	87-93
<i>Gabriel Ayodeji Ogunmola</i> GREEN BONDS: FINANCING RESOURCE CONSERVATION FOR A SUSTAINABLE FUTURE IN FARMING IN UZBEKISTAN .....	94-108

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Rashidova Dilfuza Ganievna</i> XIX ASR O‘ZBEK SHOIRALARINING IJODIDA GUMANISTIK G‘OYALAR VA IJTIMOY-FALSAFIY QARASHLAR .....	109-113
<i>Ochilova Nigora Ruzimuratovna</i> GENDER TENGLIGINI TA‘MINLASHNING IQTISODIY-IJTIMOY OMILLARI .....	114-118
<i>Samadov Jonmurod</i> JALOLIDDIN RUMIY ASARLARIDA FALSAFIY TUSHUNCHALAR VA ULARNING ILMIY–METODOLOGIK TAHLILI .....	119-123
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATI VA MEDIA-MADANIYATNING NAZARIY-FALSAFIY TUSHUNCHASI .....	124-131
<i>Kurbanbaeva Ulbosin Jumag‘alievna</i> EKOLOGIK XAVFSIZLIK TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI .....	132-136
<i>Narzukulova Ferangiz Rustamjonovna</i> ILMIY TIL VA FALSAFIY TERMINOLOGIYA: SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI .....	137-141
<i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich</i> IJTIMOY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN‘IY INTELLEKTNING INSON SALOHIYATIGA TA‘SIRI .....	142-148
<i>Султанов Бахтиёр Бахтиёрович</i> ОБРАЗ ФИЗИЧЕСКОЙ РАЗВИТОЙ, ГЕРОИЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ В ЭПОХУ АНТИЧНОСТИ .....	149-153
<i>Bozorov Suxrob Komilovich</i> MA‘NAVIY TRANSFORMATSIYANING ISTIQBOLLARI: INNOVATSION G‘OYA VA LOYIHALAR .....	154-157
<i>Kimsanbayeva Shaxnoza Bakridinovna</i> MILLIY O‘ZLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIK: ZAMONAVIY JAMIYATDAGI O‘ZARO TA‘SIRLAR .....	158-163
<i>Muxamedjanova Lalixon</i> GLOBALASHUV VA MADANIYATLARARO ARALASHUV .....	164-172

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i> INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING DIAKRON TADQIQI .....	173-180
<i>Mahmudova Umida Ural qizi</i> INTERNET DISKURSIDA FOYDALANILADIGAN EMOJILARNING LISONIY VA MADANIY JIHATLARI .....	181-189
<i>Madalov Navruz Ergashevich</i> IMPORTANT SUBJECTS OF COMPARATIVE AND CONTRASTIVE PHILOLOGICAL STUDIES AND TRANSLATION DIFFICULTIES OF STRUCTURAL–SEMANTIC MODELS OF PROVERBS .....	190-194
<i>Ubaydullayev Normuhammad Xasanovich</i> XOTIRANOMALARDA ZAMON VA MAKON MASALASI .....	195-198

<i>Ochilova Habiba Akramovna</i> ISSUES IN THE CLASSIFICATION OF QUESTION SENTENCE TYPES IN LINGUISTICS ...	199-207
<i>Muxammadiyeva Mashxura, Amirqulova Gulxayo</i> FILOLOGIK TADQIQOTLARNING ZAMONAVIY TIBBIY TARJIMA VA TALQINGA TA'SIRI .....	208-213
<i>Karabaeva Barno Bobir qizi</i> A COMPARATIVE ANALYSIS OF METAPHORICAL EXPRESSIONS REFLECTING PERCEPTION IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES .....	214-219
<i>Axunbabaeva Narqiza Xamidjanovna</i> ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПЕРЕВОДОВ ИСТОРИЧЕСКИХ И АРХАИЧНЫХ СЛОВ В ДОКУМЕНТАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКОЙ ПОВЕСТИ «ВЛАСТИТЕЛЬ СЕМИ СОЗВЕЗДИЙ» .....	220-226
<i>Turdaliyeva Shahnoza O'ktamovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI SON-GIBRID MAQOLLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI .....	227-236
<i>Mansurova Shohista Isroilovna</i> OT OBRAZI TUSHUNCHASI (ZAMONAVIY O'ZBEK VA JAHON ADABIYOTI MISOLIDA) .....	237-241
<i>Davranov Akmal Akramjonovich</i> IJTIMOIY TENGLIK TUSHUNCHASI (INGLIZ UTOPIYALARI VA O'ZBEK DOSTONLARI MISOLIDA) .....	242-246
<i>Yuldasheva Aziza Yuldashevna</i> TARJIMASHUNOSLIKDA PRAGMATIKANING O'RNI .....	247-252
<i>Mirvaliyeva Malika Zoid qizi</i> SEMANTIKANING TARJIMADAGI AHAMIYATI .....	253-257
<i>Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna</i> JADID ADABIYOTI VA MODERNIZATSIYA JARAYONLARI .....	258-262
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> THE MOOD OF LONGING FOR FREEDOM IN THE AGE OF BYRON .....	263-266
<i>Narzikulova Rayhona Ahmadovna</i> THE PRAGMATIC FUNCTIONS OF IRONY .....	267-271
<i>Najmiddinov Muhammadjon</i> O'ZBEK TILIDA KO'P MA'NOLILIK, SINONIMIYA, OMONIMIYA VA ULARNING ELEKTRON TEZAVURUSDA AKS ETISHI .....	272-278
<i>Achilov Oybek Rustamovich</i> LEKSIK-SEMANTIK DEVIATSIYA ILGARI SURISH VOSITASI SIFATIDA .....	279-284
<i>Tashpulatova Mukambar Axmetovna</i> KOMPYUTER LINGVISTIKASI VA SUN'IY INTELLEKTNING TILGA TA'SIRI .....	285-289
<i>Normamatov Farrux, Toshpo'latova Xusniya</i> GLOBAL KESIMDA INGLIZ MADANIYATINING LINGVOKULTUROGIK JIHATLARI .....	290-293
<i>Shonazarova Gulnoza, Madiyeva Madina</i> THE ROLE OF INTERNET RESOURCE IN IMPROVING TEACHING FOREIGN LANGUAGE: METHODOLOGICAL ANALYSIS AND PRACTICAL RECOMMENDATIONS .....	294-297



<i>Jo'rayeva Lola Tolibdjonovna</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA NEOLOGIZMLARNING BUGUNGI KUNDAGI QO'LLANILISHI .....	298-302
<i>Saitxanova Aziza Xolmuxamedovna</i> TA'M VA TIL O'RTASIDAGI MUVOZANAT: TAOM DISKURSINING TARJIMA QIYINCHILIKLARI VA YECHIMLARI .....	303-307
<i>Axmedov Shaxzod, Nazarov Vafokul</i> NEOLOGIZMLAR TADQIQI TARIXIGA DOIR .....	308-312
<i>Mustafayeva Sojida Ulashevna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARDA MERONIMIK MUNOSABATLI SO'ZLARNING LEKSIKOGRAFIK TALQINLARI .....	313-321
<i>Buriyeva Muxayyo Zokir qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF MEAT IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES .....	322-326
<i>Berdiqulova Shaxnoza Ruziqulovna</i> YORDAMCHI SO'ZLARNING SHAKLIY XUSUSIYATLARIGA KO'RA TURLARI VA YASALISHI: BOG'LOVCHILAR .....	327-330
<i>Shokirova Gulbahor Alimovna</i> NEMIS TILINI O'QITISHDA YANGI YONDASHUVLAR .....	331-334
<i>Najmidinova Nafisa Ulja qizi</i> O'ZBEK TILIDA SO'ZLASHUVCHILARGA ITALYAN TILINI O'RGATISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI .....	335-339
<b>12.00.00 - YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Утемуратов Махмут Ажимуратович</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРАВА (ОТ ТРАДИЦИОННОГО К ЦИФРОВОМУ ПРАВУ) .....	340-344
<i>Masadikov Sherzodbek</i> ENFORCEMENT OF ARBITRATION AGREEMENT UNDER UZBEK LAW .....	345-351
<i>Alieva Kamola Ravshanovna</i> ONLINE GENDER-BASED VIOLENCE IN UZBEKISTAN: GAPS IN LEGISLATION AND THE PATH FORWARD .....	352-363
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li</i> KONTRABANDA UCHUN JAVOBGARLIK TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIK EVOLYUTSIYASI: TARIXIY-HUQUQIY TAHLIL .....	364-372
<i>Ходжаева Ширин</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ВСЕМИРНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ В СИСТЕМЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА .....	373-378
<i>Каюмова Асаля Султномуродовна</i> ЭЛИТА ИНДУСТРИИ ВЕНЧУРНОГО КАПИТАЛА .....	379-384
<i>Mirzaraximov Baxtiyor, Shokirov Bobur</i> ZAMONAVIY TASHKILOTLARDA KIBERXAVFSIZLIK STRATEGIYALARINING SHAKLLANISHI VA SAMARADORLIGI: MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISH CHORALARINING RIVOJLANISHI VA NATIJADORLIGI TAHLILI .....	385-392

<i>Суннатиллаева Сарвиноз Иззатулло кизи</i> ДИСКРЕЦИОННЫЕ ПОЛНОМОЧИЯ В ЕВРОПЕЙСКОМ СОЮЗЕ И СОВЕТЕ ЕВРОПЫ: ПРЕДЕЛЫ, КОНТРОЛЬ И СУДЕБНАЯ ПРАКТИКА .....	393-400
<i>Dilboboyev Nozimbek</i> CHET ELLIK INVESTORLARNING HUQUQIY MAQOMI HAMDA ULARNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA IMTIYOZ VA PREFERENSIYALAR BERISH .....	401-406
<i>Raximbayev O'tkir Fayzullayevich</i> YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALASIGA NAZAR .....	407-414
<i>Ubaydullayev Abror Qutpilla o'g'li</i> HOZIRGI ZAMON ISLOM MOLIYA HUQUQI VA AN'ANAVIY HUQUQIY TIZIMLAR O'RTASIDAGI QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	415-423
<i>Zokirov Sardorjon Karimjon ugli</i> PROCEDURAL FEATURES OF PARTICIPATION DEFENSE COUNSEL AT THE PRELIMINARY INVESTIGATION .....	424-430
<i>Axmedova Guliruxsor Ravshanovna</i> BOLANI OLIB BERISH VA UCHRASHTIRISH BILAN BOG'LIQ ISHLARNI KO'RIB CHIQISH BO'YICHA SUD VA HUQUQIY AMALIYOTNING DOLZARB MUAMMO VA YECHIMLARI .....	431-436
<i>Zoilboyev Javlon Karimjon o'g'li</i> MA'MURIY SUD ISHLARINI YURITISHDA QONUNIY KUCHGA KIRGAN SUD HUJJATLARINI YANGI OCHILGAN HOLATLAR BO'YICHA QAYTA KO'RISH YUZASIDAN ISH YURITISH MAZMUNI .....	437-441
<i>Hakimov Sunnat Furqat o'g'li</i> SPORT JAMOAT BIRLASHMALARINING HUQUQIY TAHLILI .....	442-445
<i>Файзиев Фарход Фуркат угли</i> ЗНАЧИМОСТЬ ЭЛЕКТРОННОЙ ТОРГОВЛИ В СОВРЕМЕННЫХ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫХ УСЛОВИЯХ .....	446-452
<i>Файзиева Гулрух Мухаммади кизи</i> МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВА НА НЕПРИКОСНОВЕННОСТЬ ЖИЛИЩА .....	453-459
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Polvonov Baxtiyor Zaylobidinovich</i> TIBBIYOT UNIVERSITETLARIDA «MODDALARNING NURLANISH SPEKTRINI O'RGANISH» MAVZUSINI IT TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA NAMOYISH ETISH MASALALARI .....	460-466
<i>Hamdamova Nozima Muqimovna</i> BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHISI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI .....	467-475
<i>Zulfixarov Ilxom Maxmudovich, Zulfikorova Munajat Mirzaxmatovna</i> IQTISODIY-IJTIMOYIY GEOGRAFIK BILIMLAR BERISHDA MATEMATIK METODLARDAN FOYDALANISH .....	476-481
<i>Qurbonova Nigina Boboxo'jayevna</i> ESDALIKLAR — SADRIDDIN AYNIYNING UMR VA XOTIRA KITABI .....	482-488

<i>Toshtemirova Saodat Abdurashidovna</i> KLAUSTER TIZIMIDA TARIX FANLARINI O'QITISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI .....	489-494
<i>Inoyatov Odiljon Sabitovich</i> TEKISLIK LARNING O'ZARO PARALLELLIGI .....	495-500
<i>Жумамуратова Аибахар Нурмуханбетовна</i> СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ СВЯЗЕЙ .....	501-508

**Received:** 15 February 2025  
**Accepted:** 20 February 2025  
**Published:** 25 February 2025

*Article / Original Paper*

## **LEXICOGRAPHIC INTERPRETATIONS OF MERONYMIC RELATIONAL WORDS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES**

**Mustafaeva Sojida Ulashevna**

Termez State Engineering and Agrotechnologies University  
Department of Uzbek language and literature  
Teacher  
E-mail: [sojidamustafayeva557@gmail.com](mailto:sojidamustafayeva557@gmail.com)

**Abstract.** This article analyzes lexicographic interpretations of words that express meronymic relations which embodying the meaning of part-whole in English and Uzbek. The study explores definitions of meronyms in dictionaries, their classification in terms of meaning, and methods of translation. Also, in the lexicographic (dictionary) system of meronymic units, the semantic properties are analyzed in a comparative way, determining the role of the two languages in the lexical system. The result of the work is a summary of the principles of interpretation of meronymic words in English and Uzbek and their problems of translation.

**Keywords:** meronymy, lexicography, semantics, translation, lexicology, English, Uzbek, semantic relations, lexical units, meaning system.

---

## **INGLIZ VA O'ZBEK TILLARDA MERONIMIK MUNOSABATLI SO'ZLARING LEKSIKOGRAFIK TALQINLARI**

**Mustafayeva Sojida Ulashevna,**

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti  
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida meronimik munosabatlarni ya'ni qism-butunlik ma'nosini ifodalovchi so'zlarning leksikografik talqinlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda meronimlarning lug'atlardagi ta'riflari, ularning ma'no jihatidan tasnifi va tarjima usullari o'rganiladi. Shuningdek, meronimik birliklarning leksikografik (lug'atshunoslik) sistemasida semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinib, ikki tilning leksik tizimidagi o'rni aniqlanadi. Ish natijasida ingliz va o'zbek tillarida meronimik so'zlarning ta'riflanish prinsiplari va ularning tarjima muammolari yuzasidan xulosaviy fikrlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** meronimiya, leksikografiya, semantika, tarjima, lug'atshunoslik, ingliz tili, o'zbek tili, semantik munosabatlar, leksik birliklar, ma'no tizimi.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI1Y2025N49>

**Kirish.** Leksikografiya tilda mavjud lug'at birliklarini alfabet tartibi shaklidagi tizimli tarzdato'plash, tavsiflash va lug'at shaklida taqdim etish bilan shug'ullanuvchi fan sohasi hisoblanadi. Bu jarayonda so'z-leksemalarning ikki tilda o'zaro ma'no munosabatlarini o'rganish muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, o'zbek tilida meronimlarning shakllanmagan lug'aviy sistemasini sharqona shaklda leksikografik talqinini ochib berish va shakllantrish bu ulkan jarayon bo'lib, semantik lug'at tipining yana bittaga ko'payish tamoyili sifatida belgilanadi. Shuningdek, ularning ushbu sohada hozirgi so'z munosabatlarining yangi lug'aviy xossalarini

chuqur tahlil qilish va ularni ikki til – o‘zbek va ingliz tillarida qanday aks etishini aniqlashda leksemlarning sema va semantik tarkibiy tuzilishlar sathi doirasida olib borildi.

Meronimlar tildagi o‘ziga xos semantik munosabatlarni ifodalaydi. Ular butun va qism o‘rtasidagi bog‘liqlikni bildiruvchi birliklardir. Masalan, ingliz tilida mashhur leksema “finger” (barmoq) so‘zi “hand” (qo‘l) ning bir qismi sifatida ko‘riladi, xuddi shu kabi, o‘zbek tilida “shox” (daraxt shoxi) daraxt ning qismi hisoblanadi. Bunday bog‘liqliklar ikki til lug‘atlarida qanday aks etgani leksikografik tadqiqotlar orqali o‘rganiladi.

Mazkur tadqiqot o‘zbek va ingliz tillarida meronimlarning lug‘aviy ta‘riflarini qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan. Unda har ikki tilning leksikografik manbalarida meronimlarning berilish uslubi, ta‘rif shakllari va ulardagi farq va o‘xshashliklar tahlil qilinadi. Bu esa tarjima jarayonlari, terminologiya yaratish va ikki til orasidagi semantik munosabatlarni chuqurroq tushunish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** O‘zbek va ingliz tillarida meronimlarning leksikografik talqinlarini o‘rganishda turli ilmiy metodlar va ilmiy asoslardan foydalanildi. Ushbu tadqiqotning natijadorligi va ilmiy asoslanganligini ta‘minlash uchun quyidagi asosiy metodlar ishlatiladi:

- Izohli (definition/deskriptiv) tahlil metodi: Bu metod lug‘atlardagi meronimlarning ta‘riflarini tahlil qilish uchun qo‘llanadi. O‘zbek va ingliz tillaridagi lug‘aviy izohlar taqqoslanib, ulardagi o‘xshashlik va farqlar aniqlanadi.
- Qiyosiy-tipologik metod: Mazkur metod ikkala tilning leksik tizimida meronimlarning ifodalanish usullarini taqqoslashga imkon beradi. O‘zbek va ingliz tillarida meronimlarning qanday tavsiflangani, ularning semantik xususiyatlari va tasnifi solishtiriladi.
- Semantik tahlil metodi: Bu metod meronimlarning ma‘no tarkibini o‘rganishga xizmat qiladi. Ularning lug‘atlardagi semantik tarkibi ajratib chiqilib, butun va qism o‘rtasidagi munosabatlar aniqlanadi.
- Korrespondensiya (moslik) metodi: O‘zbek va ingliz tillaridagi meronimlar o‘rtasidagi ekvivalentlik darajasi aniqlanadi. Ba‘zan ikki tilda bir xil meronimik bog‘lanish mavjud bo‘lmasligi mumkin, shuning uchun ularning tarjima strategiyalari ham tahlil qilinadi.
- Korpus lingvistikasi metodi: Elektron matn korpuslari asosida meronimlarning real qo‘llanilishi o‘rganiladi. Bu metod orqali lug‘atlardagi ta‘riflar bilan haqiqiy til materiali o‘rtasidagi farqlar aniqlanadi.
- nLeksikografik modellashtirish metodi: Meronimlarning lug‘at maqolalarini yaratishda ishlatiladigan metod. Bu yondashuv yangi lug‘aviy ta‘riflarni shakllantirish va ularni tizimlashtirish uchun qo‘llanadi.

Ushbu metodlarning kombinatsiyalangan qo‘llanishlari O‘zbek va Ingliz tillarida meronimlarning leksikografik taqinlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari qism-butunlik munosabatlarning yoritishda asosiy ob‘yekt bu ingliz tilida OED (Oxford English dictionary), Miller (angliskiy-Russkiy slovar), Pinceton WordNet; O‘zbek tilida “O‘zbek tili izohli lug‘ati” shingdek bir qator elektron ochiq saytlar (savodxon.uz, izoh.uz, sinonim.uz; semantic-lexis definition) so‘zlarning tahliliy jarayonlariga amaliy manba sifatida qo‘llanildi.

**Muhokama.** Meronimlarning jahon lug‘atshunoslik talqinlariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, dastlab meronimlar lug‘atlarda quydagicha tavsiflangan: “Meronymy [mero-<sup>^</sup> (‘mereu]

‘part, fraction’, occurring in various scientific and technical terms; sometimes opposed to holon”.[1;p.629] Demak, meronym termini dastlab – mero shaklida qism, ulush, bo‘lak ma’nosida turli texnikaviy terminlarga nisbatan ishlatilgan va holonymga teskari qo‘yilgan; “Merology” [from Gr. μέρο-ς part,member + Logy.] bu termin dastlab anatomiya sohasining tarmog‘idagi elementar to‘qimalar va tana suyuqliklari uchun ishlatilgan, (Syd. Soc. Lex. 1890)”[2;629] Bundan ko‘rinadiki, mero va merology terminlari kiyinchalik davr taraqqiyoti evaziga lingvistika dunyosiga kirib kelib, meronimik iyrarxiya doirasini yaratish uchun zamini bo‘ldi desak adashmaymiz va hozirgi kunda meronimlar haqida quydagi **jahon lug‘atshunoslik resurs tizimlari** ma’lumot beruvchi ba’za lug‘at turlari hisoblanadi:

- 1) **Oxford English Dictionary** (Oksford inglizcha lug‘ati) (OED) – meronimik munosabatlarga tegishli so‘zlar ro‘yxati asosan otlik shakllarga mos xususiyatlar

1.1 Rasm.

The screenshot shows the OED entry for 'meronym'. It includes sections for:
 

- What does the noun meronym mean?**: There are two meanings listed in OED's entry for the noun meronym. See 'Meaning & use' for definitions, usage, and quotation evidence.
- How is the noun meronym pronounced?**: BRITISH ENGLISH: /ˈmɛrənɪm/ (MERR-uh-nim); U.S. ENGLISH: /ˈmɛrəˌnɪm/ (MAIR-uh-nim).
- How common is the noun meronym?**: Fewer than 0.01 occurrences per million words in modern written English. A line graph shows frequency from 1970 to 2010.
- Where does the noun meronym come from?**: The earliest known use of the noun meronym is in the 1970s. OED's earliest evidence for meronym is from 1970, in a dictionary by J. T. Shipley. Etymons: mero- comb. form<sup>1</sup>, -onym comb. form.

- 2) **Merriam-Webster Dictionary** (Merriam-Vebster lug‘ati)- turli izohli ma’nolari va izohlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, “meronym”-“mero” shaklida uchraydi, etimologik kelib chiqishini quydagicha tavsiflaydi: “combining form from Greek méros “part, share, row, rank” va “finger” so‘zning misolarida ko‘radigan bo‘lsak u “noum”-ot so‘z turkumi bo‘lib, tranzitivlik vazifasida keladi “one of the five divisions of the end of the hand” - “qo‘l” qismi sifatida izohlanadi
- 3) **Collins English Dictionary: complete and unabridged (internet archive)** (Kollinz inglizcha lug‘ati)- “meronym [merav,nim] Noun a part of something used to refer to the whole, such as faces meaning people, as in they’ve seen a lot of faces come and go.>History from Greek meros part+onuma name meroplankton (merou’plenktan) noun plankton consisting of organisms at a certain stage of their life cycles, esp,larvae, the other stages not being spent as part of the plankton community” [7;p.1021] 4) **WordNet (Princeton University** (Prinston universiteti) - keng hajmli ingliz leksikaviy ma’lumotlar ba’zasi (J.Miller, Fellbaum, Christiane mualliflar): ot, fe‘l, sifat va ravishlarning kognitiv sinonimlar(sinsetlar) to‘plami ostida guruhlashtrilgan va har biri alohida tushuncha ifodalaydi. Sinsetlar bu konseptual-semantik va leksik munosabatlar bilan o‘zaro bog‘lanadi. Har bir WordNetlar 117.000 sinsetlarni qamrab olgan va munosabatlarni biri biriga tobe iyerarxik munosabatli sinsetlar sifatida izohlayd;


meronimlar haqida “Meronymy, the part-whole relation holds between synsets like [chair] and [back, backrest], [seat] and [leg]. Parts are inherited from their superordinates: if a chair has legs, then an armchair has legs as well. Parts are not inherited “upward” as they may be characteristic only of specific kinds of things rather than the class as a whole: chairs and kinds of chairs have legs, but not all kinds of furniture have legs”. Demak, bundan ko‘rinadiki, ma‘lum bir jihozning oyog‘i ya‘ni tirgak vazifasini o‘tovchi ob‘ekt yuqoridan meros bo‘lib o‘tmaydi yoki umumiy sinf doirasida vazifa o‘tamaydi balki maxsus turning qismi vazifasini bajaradi, bu stul yoki kresloning oyog‘i bo‘e degani boshqa jihozlarda ham zaruiri vazifani o‘tovchi sinsetlil so‘zlar, qismlilar bor bo‘ladi degani emas. 5) **Cambridge English Dictionary** (Kembrij ingliz Dictionary)- meronimik munosabatlar haqida ma‘lumot ega emas ammo unga qardosh bo‘lgan giponim haqida ma‘lumot uchraydi:

## 1.2 Rasm




Biz yana “Cambridge English dictionary” lug‘atida “wheel”(“g‘ildirak, balon”) ob‘ektini analitik tahlil qilganimizda - “circular object, connected at the center to a bar, that is used for making vehicles or parts of machines move: m *the wheel of a bicycle*” ya‘ni biron ob‘ektning qismi sifatida izohlangan, bundan anglash mumkinki “wheel” – balon bu butunlik “velosiped” ob‘ektning meronimi sifatida anglash munkin. 6) **Longman Dictionary of Contemporary English** (Longman zamonaviy ingliz lug‘ati) da antonimik va unga qardosh bo‘lgan sinonimlar to‘g‘risida ma‘lumotlani uchratdik ammo meronimik tasniflar yo‘q, shunday bo‘lsada “whole-part” collocation (birikma) sifatida izlaganimizda “part”(qism) li bo‘lakka quydagicha gramatik izoh topa oldik qaysiki merionimik munosabatlarning 6tavsifi sifatida bog‘lanadi:

## 1.3 Rasm




Part of speech – grammar information.( So‘z qismlari leksikaviy iyerarxiya hisoblanadi). [9; p.7]

## 1.4 Rasm



Nafaqat jism, modda yoki obe’ktlarga emas balki grammatik atamalar qism-butunga so‘zlar turkumi – guruh – tur – qism shakliga bo‘y sinuvchilar buturkumidir. “Part and whole” (qism va butun) ma’nolarini yanada chuqurroq izlanganimizda biz yuqorida keltirgan misollarimizning isboto sifatida quydagi ma’molarni takrorlaydi:

## 1.5 Rasm



“part” -“whole” - qism bu inson tana qismlari yoki ma’lum ob’ektlarning zaruriy qismi; butun – qismning butuni/ katta hajmi ma’nosi ostida keluvchi leksik atama. [10; p.54-55] 7) **Thesaurus.com** (Tezarus) sinonim, antonym va boshqa so‘z munosabatlarining murakkab onlayn tezarusi hisoblanadi. 145.800 dan ortiq eng top manbaalarning tezarusini o‘z ichiga olgan: *Collins Thesaurus of the English Language -Complete and unabridged, The American heritage Roget’s Thesaurus va Word Net.Tezarus*. Meronim Tezarus Vikipediya lug‘atida quydagicha izohlanadi:



### 1.6 Rasm. Meronimik ochiq internet interfeysi

**meronym** (ˈmɛrəʊˌnɪm)

*n*

(Linguistics) a part of something used to refer to the whole, such as *faces* meaning *people*, as in *they've seen a lot of faces come and go*

[from Greek *meros* part + *onuma* name]

“CITE” Collins English Dictionary – Complete and Unabridged, 12th Edition 2014 © HarperCollins Publishers 1991, 1994, 1998, 2000, 2003, 2006, 2007, 2009, 2011, 2014


**Thesaurus** Legend: ≡ Synonyms ↔ Related Words ⊘ Antonyms

Switch to **new thesaurus**

**Noun 1. meronym** - a word that names a part of a larger whole; ""brim" and "crown" are meronyms of "hat"

≡ **part name**


↔ **word** - a unit of language that native speakers can identify; "words are the blocks from which sentences are made"; "he hardly said ten words all morning"



Tezarus – ma’no izohalarida esa qutdagicha diagramma asosida tasvirlanadi:

### 1.7 Rasm. Meronimik ochiq internet interfeysi

meronym ⊘ ↔ ≡  
Also found in Dictionary, Wikipedia



**noun**

Synonyms for meronym

*noun* a word that names a part of a larger whole ▲

**Synonyms**

part name

**Related Words**

word

Look up in Thesaurus

Tezarus Vikipediya Ensiklopediyasida meronim va xolonimlarnig semantik munosabatli bog‘lanish va diferensiyalik holat;larini taqqoslab izohlab bergan. Xulosa qiladigan bo‘lsa, tezarus keng qamrovli zamonaviy lingvistik leksikografik ba’za hisoblanadi.

O‘zbek tili lug‘atlarida meronimlar (qism – butun munosabatlari) bo‘yicha maxsus lug‘atlar mavjud emas, lekin ayrim lingvistik manbalarda va izohli lug‘atlarda ushbu tushuncha ko‘rinishda uchrashi mumkin. Quyidagi manbalarda topishimiz mumkin: 1) O‘zbek tili izohli

lug'atlarda – O'zbek tilining xalqona izohli lug'ati 35000dan ortiq so'z ma'nolari va iboralari berilgan, shu jumladan "qism va butun" so'zlarining ma'nolari tushuntirilgan, lekin meronim so'z/termin sifatida alohida berilmagan. Ammo qism va butunlik so'zlari meronimik ma'no munosabtlarini uning butun yoki qism ekanligi aniqlab beradi, masalan "qism" so'zining to'rtta ma'noalri berilgan: 1) butunning tarkibiy qismi yoki uzvi, ulushi; 2) bir ish, majlis, asar va shu kabilarning ma'lum darajada mustaqillika ega bo'lgan alohida bo'lagi; qismi; 3) mashina, mexanizm, inshoot va shu kabilarni tashkil qilgan ob'ektlarning qismi/ har bir detali sifatida 4) harb. Qurolli kuchlar tarkibidagi alohida bo'linma, tarkib yoki birikma 2) O'zbek tili sinonim lug'atlarida ham aynan O'zbek tili izohli lug'ati kabi – ba'zi lug'atlar ma'lum bir butunning qismlarini sinonim yoki antonim bilan bog'liq holda keltiradi. Masalan: "bo'lak" so'ziga murojat qilganimizda bu so'zning o'zi beshta ma'no turida ishlatilishi berilgan ammo shulardan uchta ma'no xususiyatlari meronimik munosabatlarga teng: 1) butunning bir qismi; qism, parcha, kesim ("Engashib, yashikdan *ikki bo'lak ko'mir* olib soldi. S.Karomatov, Oltinqum ( tabiiy resurslar → qattiq jismlilar → oltin, ko'mir, po'lat, temir, mis) 2) bir qismi, donasi, o'rami: Sobir *ushoq bo'lagini* bog'dagi qushlarga tashladi. 3) sft. Boshqalardan farq qiladigan; boshqa, o'zga, boshqacha (Uning *qizil yanog'i* lovullab yo'nar edi. Yuz – qismi ma'nosida) 3) O'zbek tilining izohli lug'atida (80.000 mingdan ortiq so'z va so'z birikma 5 jildli) tana qismini "bosh" [14; b.333] so'ziga quydagicha tavsif berilgan: Bosh – tananing bo'yindan yuqorigi, oldingi (odamda, hayvonlarda) qismi, kalla, bosh shakli; "bo'yin" [15; b.402] odam va umurtqali hayvonlar gavdasining bosh bilan tanani biritiruvchi qismi; "burda" [16; 378] so'zi qism ma'nosiga teng bo'lin, kesilgan, bo'lingan kichik parcha, bo'lak (non, go'sht va hakoza. (bir burda non); "parcha" [17; b.1583] – qism, bo'lak, burda; mato bo'lagi, ipak mato turi: Butundan kesib, qirqib, yertib, sindirib olingan yoki o'zi ajralgan qismi sifatida ta'rif beriladi; "tarmoq" so'zi uchta ma'no turini ifodalasada har uchulasi ham asosiy butunlikning qismi, tarmog'i, shobchasi vazifasini o'tagan, masalan, asosiy yo'l tarmoqg'i; asosiy tashkilot tarmog'i/ shaxobchasi; fan, texnika sohaviy tarmoq shaxobchalari.

O'zbek tilida meronimlarning ilmiy taqiqotlarda, maqollarda, manbalarda quydagicha izoh shakllarida uchratishimiz munkim:

**Definitiyalar orqali:** So'z ma'nosini tushuntirish jarayonida. Masalan, oyoq – inson yoki hayvon tanasining pastki harakat organi bo'lib, u son, boldir, to'piq, kaft, barmoqlar qismlaridan iborat.

**Qavs ichida yoki izohlarda:** Ba'zi lug'atlarda meronimlar qavs ichida yoki izoh sifatida berilishi mumkin. Masalan, barg (o'simlik qismi).

**Diagramma yoki tasnif shaklida:** Ba'zi maxsus lug'atlarda butun va uning qismlarining sxematik tasviri bo'lishi mumkin.

Xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbek tili lug'atlarida meronimlar odatda izoh, sinonim va terminologik bog'liqlik orqali beriladi. Biroq, ularni yanada tizimli ravishda ko'rsatish uchun tasnifli lug'atlar yoki maxsus leksik resurslar yaratilishi lozimligi isbotlaydi.

#### Natijalar:

**1) Meronim tushunchasining umumiy xususiyatlari:** O'zbek va ingliz tillarida meronimlar (barcha-hissa munosabatidagi so'zlar) tizimli ravishda mavjud. Ingliz tilida meronimlar leksikografik manbalarda konkret belgilangan bo'lib, "part-whole relationship" asosida tavsiflanadi. O'zbek tilida esa meronimlar haqida kamroq tadqiqot qilingan bo'lib, ko'proq sinonimiya va antonimiya bilan bog'liq tahlillar uchraydi.

**2) Leksikografik manbalardagi farqlar:** Ingliz tilidagi lug'atlar (Oxford, Cambridge, Merriam-Webster) meronimlarni alohida belgilaydi va ularning semantik xususiyatlarini ko'rsatadi. O'zbek lug'atlarida esa meronimiy munosabatlar kam hollarda ochib berilgan. Ko'pincha, so'zning ta'rifi berilib, uning tarkibiy qismlari yoki bog'liq tushunchalar batafsil yoritilmaydi.

**3) Qiyosiy tahlil:** Inglizcha misol: "tree" (daraxt) → "branch" (shox), "leaf" (barg), "root" (ildiz).

O'zbekcha misol: "daraxt" → "shox", "barg", "ildiz".

Har ikkala til uchun meronimiy tizim mavjud bo'lsa-da, ingliz tilida lug'aviy tavsif aniqroq beriladi; O'zbek tili leksikografiyasida so'z izohlanadi adabiy misollar asosida.

**Xulosa.** Chog'ishtrilayotgan ikki tillar ya'ni O'zbek va ingliz tillarida meronimlarning leksikografik talqinlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikkala tilda meronimiy munosabatlar mavjud bo'lsa-da, ularning lug'aviy tavsifi va tizimlashtirilishi darajasi farqlidir. Ingliz tilida meronimlar lingvistik manbalarda keng tadqiq qilingan va lug'atlarda aniq belgilangan holda taqdim etilgan. Ular "part-whole relationship" (qism-butunlik munosabatlar) doirasida semantik jihatdan o'zaro bog'langan bo'lib, lug'atlardagi izohlar aniq va tizimli tuzilgan.

Tadqiqot natijalari shuni anglatadiki, o'zbek tilida meronimlarning aniq tasnifli korpuslarni ishlab chiqish, ularni leksikografik jihatdan tizimlashtirish hamda zamonaviy lug'atlarda ularning tavsifini kengroq yoritish dolzarb masala hisoblanadi. Ingliz tilidagi ilg'or leksikografik tajribalardan foydalanish, jumladan, meronimlarni o'zaro bog'liq leksik birliklar sifatida tasniflash va ularning semantik xususiyatlarini belgilash, o'zbek tilshunosligida ushbu sohani rivojlantirish uchun muhim metodologik asos bo'lishi mumkin.

#### Adabiyotlar / Литература / References:

1. J.A.Simson and E.S.C.Weiner. The Oxford English Dictionary., Second Edition. Volume IX., Clarendon Press Oxford., 1989., p.629
2. J.A.Simson and E.S.C.Weiner. The Oxford English Dictionary., Second Edition. Volume IX., Clarendon Press Oxford., 1989., p.629
3. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/finger>
4. WordNet A Lexical Database for English., Princeton University; [http://www.wordnet-online.com/part\\_name.shtml](http://www.wordnet-online.com/part_name.shtml)
5. [https://archive.org/details/longmandictionar0000unse\\_s5c7](https://archive.org/details/longmandictionar0000unse_s5c7)
6. / [https://archive.org/details/longmandictionar0000unse\\_s5c7](https://archive.org/details/longmandictionar0000unse_s5c7)
7. Collins English Dictionary: complete and unabridged (internet archive)., Glassgow., 2003., p.1021
8. from the Cambridge Advanced Learner's Dictionary & Thesaurus © Cambridge University Press; <https://dictionary.cambridge.org/>
9. Longman Dictionary of Contemporary English., New edition for advanced learners., 2009.- p.7
10. Longman Dictionary of Contemporary English., New edition for advanced learners., 2009.- p.54-55
11. Thesaurus – Synonyms, Antonyms and Related Words; <https://www.freethesaurus.com/>
12. O'zbek tili Izohli lug'ati; izoh.uz; [https://izoh.uz/?hl=ru\\_RU](https://izoh.uz/?hl=ru_RU)
13. Ўзбек тили изоҳли синонимлар луғати – O'zbek tili sinonimlar lug'ati., sinonim.uz
14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Бешинчи жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. Б.333

15. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Бешинчи жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. Б.402
16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Бешинчи жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. Б.378
17. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Бешинчи жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006.Б.1583
18. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Бешинчи жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006.Б.2037

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/1 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).